

Frontal tishlarni dioksid sirkoniy asosidagi ko'priksimon protezlar bilan protezlaganda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining xususiyatlarini tahlil qilish

Ferangiz Obidovna Olimova

Abu ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

Obid Olimovich Tojiyev

Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Bugungi kunda ortopedik stomatologiyada estetik hamda funksional talablarning ortishi bilan birgalikda biologik mos materiallardan foydalanish alohida ahamiyatga ega hisoblanmoqda. Asosan, oldingi tishlar sohasida qo'llaniladigan ko'priksimon protezlar faqat estetik ko'rinishga ega bo'lishi emas, balki og'iz bo'shlig'i to'qimalariga nisbatan yuqori moslashuvchanlikka ega bo'lishi kerak. Uzoq muddatli klinik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki turli, arzon metallar hamda ularning qotishmalari organizmda ko'p muddat bo'lganda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hozirgi kunda dioksid sirkoniy asosidagi protezlar shunday talablarga javob beradigan material sifatida keng qo'llanib kelinmoqda.

Kalit so'zlar: dioksid sirkoniy, metallokeramika, protez, adentiya, gingivit, stomatit, shilliq qavat

Analysis of the properties of the oral mucosa when prosthesing frontal teeth with zirconium dioxide-based bridge prostheses

Ferangiz Obidovna Olimova

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali Ibn Sino

Obid Olimovich Tojiyev

Bukhara State Technical University

Abstract: Today, in orthopedic dentistry, along with the increase in aesthetic and functional requirements, the use of biocompatible materials is of particular importance. Basically, bridge prostheses used in the anterior teeth should not only have an aesthetic appearance, but also have high flexibility in relation to the tissues of the oral cavity. Long-term clinical observations have shown that various, inexpensive metals and their alloys can have a negative effect when they are in the body for a long time. Currently, zirconium dioxide (zirconium dioxide) - based prostheses are widely used as a material that meets such requirements.

Keywords: zirconium dioxide, metal-ceramic, prosthesis, adentia, gingivitis, stomatitis, mucous membrane

Bugungi kunda ortopedik stomatologiyada estetik hamda funksional talablarning ortishi bilan birgalikda biologik mos materiallardan foydalanish alohida ahamiyatga ega hisoblanmoqda. Asosan, oldingi tishlar sohasida qo'llaniladigan ko'priksimon protezlar faqat estetik ko'rinishga ega bo'lishi emas, balki og'iz bo'shlig'i to'qimalariga nisbatan yuqori moslashuvchanlikka ega bo'lishi kerak. Uzoq muddatli klinik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki turli, arzon metallar hamda ularning qotishmalari organizmda ko'p muddat bo'lganda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ularga og'izda paydo bo'lgan metal ta'mi, so'lk ajralishi buzilishi, nevrologik o'zgarishlar kuzatiladi (Axmedov X.K.) Hozirgi kunda dioksid sirkoniy asosidagi protezlar shunday talablarga javob beradigan material sifatida keng qo'llanib kelinmoqda. Metallokeramika va sirkoniy protezlar o'rnatilganda parodont to'qimalaridagi o'zgarishlar qiyosiy baholangan va sirkoniyning ustunligi isbotlangan (R.O.Asrorovich hamda I.A.Shodiyevich tadqiqotlarida). Dioksid sirkoniy yuqori biologik moslikka ega bo'lib, allergik reaksiya chaqirmaydi va to'qimalar bilan yaxshi integratsiyalanadi. Uning silliq yuzasi blyashka va mikroorganizmlarning kamroq to'planishiga yordam beradi. Bu esa protez ostidagi shilliq qavatda gingivit, stomatit kabi yallig'lanish jarayonlarining rivojlanish xavfini kamaytiradi. Dioksid sirkoniy asosidagi ko'priksimon protezlar ostida shilliq qavat odatda rang jihatidan och pushti, elastik va og'riqsiz bo'ladi. Qon aylanishi va limfa oqimi buzilmaydi. Epiteliya deskvamatsiya jarayonlari fiziologik darajada kechadi. Protez ostidagi gigiyenik sharoit yaxshi bo'lsa, yallig'lanish belgilarisiz uzoq muddatli klinik natijalarga erishish mumkin. Protezkonstruksiya materiallarining biologik neytralligi protezlangandan keyingi asoratlarni, asosan surunkali yallig'lanishlardan shilliq qavatni himoyalashi asosiy omil hisoblanadi (Bekmetov X.I.). Dioksid sirkoniy asosidagi ko'priksimon protezlarning ijobiy xususiyatlari juda ko'p. Ular yuqori mustahkamlik va chidamlilikka ega hisoblanadi. Sirkoniy dioksidi juda mustahkam material bo'lib u chaynash jarayonida chaynov bosimiga bardoshli. Shuningdek, agar to'g'ri parvarish qilinsa ushbu koronkalar 15-20 yillar yoki undan ham uzoq muddat xizmat qilishi mumkin. Estetik jihatdan ham yorug'lik o'tkazish xususiyati emalga yaqinligi hisobidan talablarga javob beradi. Metallokeramikadan farqli ravishda tarkibida asosini metal tashkil qilmagani sabab milk atrofida turli qora chiziqlar hosil qilmaydi. Undagi yana bir ijobiy xususiyat shundaki vaqt o'tishi bilan o'z rangini o'zgartirmaydi, saqlab qoladi va oziq-ovqat mahsulotlari ta'sirida bo'yalmaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, dioksid sirkoniy asosidagi protezlarni o'rnatishda tishni minimal darajada charxlash amalga oshiriladi, sababi ular yupqa (0,3-0,6mm) hisoblanadi. Dioksid sirkoniy asosida tayyorlangan tish ko'prigi bir necha yaxlit tojlardan iborat

bo'lib, qalinligi 0,5 mm bo'lgan tayanch tishlarga yoki implantlarga o'rnatiladigan va yo'qotilgan tishlarni tiklash maqsadida qo'llanadigan qo'zg'almas ortopedik konstruksiya. Ko'priksimon protezlar davolovchi -profilaktik sun'iy a'zo kabi adentiyaning chegaralangan nuqsonlarda chaynov harakatni, nutqni tiklashda hamda boshqa bir qator funksiyalarni tiklashda foydalanib kelinmoqda. Dioksid sirkoniy metal va kislorodning noorganik birikmasi hisoblanadi. Kimyoviy reaksiyalarga, korroziyaga va termal ta'sirlarga chidamli. Shuning uchun, turli sohalarda, shuningdek stomatologiyada qo'llaniladi. Dioksid sirkoniy asosidagi ko'priksimon protezlarning asosiy kamchiligi bu ularning yuqori narxi hisoblanadi. Metallokeramika koronkalari bilan solishtirganda ancha qimmat hisoblanadi. Shikast yoki zarar yetganda esa to'liq almashtirishga to'g'ri keladi.

Tadqiqotning maqsadi: Oldingi tishlarni dioksid sirkoniy asosidagi ko'priksimon protezlar bilan protezlaganda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining himoya - immun omillari hamda xususiyatlarini baholash.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Abu ali Ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat Tibbiyot Institutiga qarashli stomatologiya o'quv- ilmiy markazida 20 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan 30 nafar bemor ortopedik davolanishni qabul qildi

Material va usullar. Tadqiqotlar asosida bemorlar asosan 2 guruhga bo'lindi. Birinchi guruhni nikel-xrom qotishmasidan tayyorlangan metallokeramik protezli bemorlar tashkil qiladi. Ikkinchi guruhni ya'ni asosiy guruhni esa dioksid sirkoniy asosidagi protezli bemorlar tashkil qiladi.

Natijalar: Tadqiqotda parodont to'qimalarining holatini PMA indeksi hamda milk suyuqligi miqdori bilan baholandi. Tadqiqotlar natijasida shu aniqlandi: birinchi guruh ya'ni nikel-xrom qotishmasidan tayyorlangan metallokeramik protezli bemorlar tashkil qiladi. Metall qotishmalari og'iz bo'shlig'idagi muntazam namlik hamda pH o'zgarishi natijasida korroziyaga uchraydi hamda buning natijasida metall qo'shimchalari mahalliy immun gomeostazni buzadi, bu esa milkning shishishi va yallig'lanishiga olib keladi. Shuningdek, metallokeramik protezlar shilliq qavatning himoya funksiyalarini pasaytiradi. Uch oy davomida metall protez taqib yurgan bemorlarda ko'pincha "metalloz" belgilari shakllana boshlaydi: og'iz qurishi hamda yoqimsiz metall ta'mi, tomoq qichishi kabi holatlar yuzaga keldi, milkda qora chiziqlar paydo bo'ldi. Bunda giyohli damlamalar bilan chayish orqali salbiy ta'sirlarni to'xtatishga yordam beradi. Masalan, moychechak kuchli antiseptik bo'lib, milkdagi qizarishlarni oladi. Eman po'stlog'i (kora duba) milklarda qonash holatlari kuzatilganda o'zining biriktiruvchi xususiyati bilan yordam beradi

Ikkinchi guruh ya'ni dioksid sirkoniy asosidagi protezli bemorlarning og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining holati: yallig'lanish yo'qligi, shilliq qavatda qon aylanishi va oqimi buzilmaydi. Dioksid sirkoniy yuqori biologik moslashuvchanlikka ega bo'lib, allergik reaksiyalar chaqirmaydi. Metallokeramikadan farqli o'laroq

noxush ta'm va shunga o'xshash nojo'ya ta'sir qilmaydi. Shuningdek, yorug'lik o'tkazuvchanligi tabiiy tish emaliga yaqin hisoblanadi va shu sababli ham estetik jihatdan ham noqulaylik tug'dirmaydi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining fiziologik holatini saqlab qolishda eng samarali material dioksid sirkoniy asosidagi ko'priksimon protezlar hisoblanadi. Ular faqat estetik mukammallikni ta'minlabgina qolmay, balki shilliq qavatda patologik jarayonlar kelib chiqishini oldini oladi. Shu sababli, ayniqsa oldingi tishlar sohasida sirkoniy protezlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raxmatov M.R., Abdullayev A.A. Dioksid sirkoniy asosidagi ortopedik konstruksiyalarning biologik mosligi va klinik samaradorligi // Stomatologiya jurnali. – Toshkent, 2020. – №3. – B. 45–49.
2. Ismoilov Sh.Sh., Karimov N.K. Frontal tishlarni zamonaviy ko'priksimon protezlar bilan protezlashda parodont va shilliq qavat holati // O'zbekiston tibbiyoti. 2019. – №4. – B. 62–66.
3. To'xtayev J.A. Stomatologik ortopediyada sirkoniy oksidi materiallaridan foydalanishning klinik-morfologik asoslari. – Toshkent: Meditsina, 2018. – 180 b.
4. Abduraxmonov F.B., Yusupov D.A. Ko'priksimon protezlarning og'iz bo'shlig'i shilliq qavatiga ta'siri // Yangi O'zbekiston tibbiyoti. – 2021. – №2. – B. 33–38.
5. Saidov I.I., Maxmudova G.R. Dioksid sirkoniy asosidagi protezlarning estetik va funksional xususiyatlari // Stomatologiya va maxillofasial jarrohlik. – Toshkent, 2022. – №1. – B. 27–31.
6. Gavrilov E.I., Oksman I.M. Ortopedicheskaya stomatologiya. – Moskva: GEOTAR-Media, 2017. – 512 s.
7. Ponomarenko V.A. Sirkoniy ortopedik stomatologiyada: biologik moslik va klinik jihatlar // Rossiya stomatologiyasi. – 2019. – №5. – B. 14–18.
8. Denry I., Kelly J.R. State of the art of zirconia for dental applications // Dental Materials. – 2008. – Vol. 24(3). – P. 299–307.
9. Sailer I., Feher A., Filser F. Prospective clinical study of zirconia posterior fixed partial dentures // Journal of Prosthetic Dentistry. – 2007. – Vol. 97. – P. 287–293.
10. Al-Amleh B., Lyons K., Swain M. Clinical trials in zirconia: a systematic review // Journal of Oral Rehabilitation. – 2010. – Vol. 37. – P. 641–652.